

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.08.2022.T.73.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

MENGLIYEV ISMOIL ABDUNAZAR O‘G‘LI

**AVTOYO‘L KO‘PRIKLI INSHOOTLARINING TEMIRBETON
QOVURG‘ALI ORALIQ QURILMALARINI TRANSPORT YUKLARI
TA‘SIRIGA HISOBLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.09.02 – “Geotexnika”
(Ko‘priklar, transport tonnellari va metropolitenlar)**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Mengliyev Ismoil Abdunazar o'g'li

Avtoyo'l ko'priklari inshootlarining temirbeton qovurg'ali oraliq qurilmalarini
transport yuklari ta'siriga hisoblash usullarini
takomillashtirish..... 3

Менглиев Исмоил Абдуназар ўғли

Совершенствование методов расчета железобетонных ребристых
пролетных строений автодорожных мостовых сооружений на
воздействия транспортных нагрузок
..... 23

Mengliyev Ismoil Abdunazar ugli

Improving methods for calculating reinforced concrete ribbed span structures
of road bridge structures for the effects of traffic loads..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 49

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.08.2022.T.73.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

MENGLIYEV ISMOIL ABDUNAZAR O‘G‘LI

**AVTOYO‘L KO‘PRIKLI INSHOOTLARINING TEMIRBETON
QOVURG‘ALI ORALIQ QURILMALARINI TRANSPORT YUKLARI
TA‘SIRIGA HISOBLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.09.02 – “Geotexnika”
(Ko‘priklar, transport tonnellari va metropolitenlar)**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2024.3.PhD/T4965 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tstu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Miralimov Mirzohid Xamitovich
texnika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Yuldashev Sharafitdin Sayfitdinovich
texnika fanlari doktori, professor

Yuvmitov Anvar Sayfullayevich
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc.15/31.08.2022.T.73.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «06» mart soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100067, Toshkent sh., Temiryo‘lchilar ko‘chasi 1-uy, 259-aud.

Tel: (+99871) 299-00-01, 299-02-43, faks: 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz, tashiit@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№224 - raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100067, Toshkent sh., Temiryo‘lchilar ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (+99871) 299-05-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «25» fevral kuni tarqatildi.
(2025 yil «25» fevraldagi 19 raqamli reyestr bayonnomasi).

A.I. Adilxodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

U.Z. Shermuxamedov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori, professor

A.A. Ishanxodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ko‘priklar har qanday transport tizimining ajralmas qismi bo‘lib, ularning ishonchliligi va xavfsizligi butun dunyoda dolzarb masala hisoblanadi. Bugungi kunda ko‘priklarning eskirishi, ortib borayotgan yuklamalar, tabiiy ofatlar va moliyaviy cheklovlar kabi muammolar global darajada ahamiyat kasb etmoqda. Ko‘plab ko‘priklar o‘tgan asrda qurilgan bo‘lib, zamonaviy transport va iqlim sharoitlariga mos emas. Ushbu masalalar ko‘priklarning mustahkamligi va uzoqqa chidamliligini ta‘minlash uchun yangi texnologiyalar, innovatsion materiallar, ilg‘or loyihalash va hisoblash usullarini joriy etish eng muhim masalalardan hisoblanadi. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda xususan, AQSh, Shveysariya, Janubiy Koreya, Rossiya, Xitoyda ko‘priklar, yo‘llar va boshqa transport inshootlarini loyihalash zamonaviy ilg‘or texnologiyalar hamda loyihalashning texnik vositalaridan foydalanish yo‘li bilan amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan avtoyo‘l yo‘l ko‘priklari inshootlarining oraliq qurilmalarini transport yuklari ta‘siriga hisoblash usullarini takomillashtirish oraliq qurilmalarning yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish maqsadida zamonaviy va innovatsion hisoblash texnologiyalarni qo‘llash jarayonlariga alohida etibor qaratilmoqda.

Jahonda ko‘priklari inshootlarning hajmli-rejalash yechimlarini takomillashtirishga, materiallarning turli xil yuklanish va ta‘sir ostidagi haqiqiy o‘ziga xos tomonlari va xususiyatlarini e‘tiborga oluvchi inshootlarni hisoblash nazariyasi va uslublariga alohida etibor qaratiladi. Ko‘priklari inshootlar oraliq qurilmalariga oid yangi prinsipial konstruktiv yechimlaridan foydalangan holda, ularni bikrlilik, mustahkamlik va chidamlilikka hisoblash usullarini takomillashtirish, shuningdek ularga nisbatan yetakchi texnologiyalar va loyihalash vositalarini qo‘llashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, Avtomobil yo‘l ko‘priklarining temirbeton oraliq qurilmalarini yuk ko‘tarish qobiliyatini hisoblash usullarini takomillashtirish va yuk ko‘tarish qobiliyati va mustahkamligini oshirish, ko‘priklari konstruksiyalarini tashqi ta‘sir ostida deformatsiyalanish jarayonlarini baholashga doir samarali usullarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Respublikamizda alohida e‘tibor yo‘l-transport qurilishi sohasini rivojlanishiga, turli ta‘sir ostidagi ko‘priklari inshootlarning qurilayotgan obyektlari mustahkamligini ta‘minlash tizimini takomillashtirish va yaratish choralari amalga oshirilishiga ham qaratiladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 y. 28 yanvardagi “Yangi O‘zbekistonni 2022-2026 y.y. rivojlantirish strategiyasi haqida” gi PF-60-son farmonida hayotiy muhim masalalar belgilangan¹. Bu masalalarni hal qilishda ko‘priklar, yo‘l o‘tkazgichlarni turli yuklanishlar ostida hisoblash usullarini o‘rganish va takomillashtirish, shuningdek zamonaviy vaqtincha harakatlanuvchi transport yuklarini oraliq qurilmalar deformatsiyalanishiga ko‘rsatadigan ta‘sirini tahlil qilish va hisoblash usullarini takomillashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan strategik rivojlanishning chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-60 -son Farmoni.

Mazkur dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 y. 29 oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilga qadar rivojlantirish konsepsiyalari” nomli PF-6097-son farmonida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 y. 30 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini tubdan takomillashtirish choralari haqidagi” PQ-4794-son qarori, 2018 y. 27 apreldagi “Innovation g‘oya, texnologiya va loyihalarni amalda joriy etish tizimini yanada takomillashtirish choralari haqida” gi PQ-3682-son qarori, 2019 y. 29 oktyabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat haqida” gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida hamda ushbu sohada qabul qilingan boshqa huquqiy-me’yoriy hujjatlarda qo‘yilgan masalalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublikaning ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirilishining IV. «Matematika, mexanika, inshootlar seysmodinamikasi va informatika» hamda XIV. «Seysmologiya, seysmik xavfsizlik va bino va inshootlari qurilishi» kabi eng muhim yo‘nalishlari bo‘yicha olib borilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Avtomobil yo‘llaridagi ko‘priqli inshootlarning oraliq qurilmalarini hisoblash nazariyasi va usullari hozirgi ko‘rinishida o‘tgan asrning 50-70 yillarida yaratilgan. Sxemalari bo‘yicha eng maqbul bo‘lgan temirbeton ko‘priqli, yo‘l o‘tkazgich va estakadalarning konstruktiv shakllarini yanada rivojlantirish bilan bir vaqtda ko‘priqli inshootlar konstruksiyalarini hisoblash usullarini rivojlantirilishi olib borilgan.

Sun‘iy inshootlarni industrializatsiyalash va qurilishini tezlashtirish masalalari temirbeton konstruksiyalarining andozaviy loyihalarini ko‘payishini talab etadi. Shu maqsadda ko‘priklarning oraliq qurilmalarini asosiy o‘lchamlari odatda standart o‘lchamlarini saqlagan holda, modullik va unifikatsiyalashtirish (birxillashtirish) prinsiplariga rioya qilib belgilanar edi.

Ko‘priqli inshootdan transport qurilishi obykti sifatida maqsadli foydalanishni belgilovchi eng muhim parametr – bu avtomobil transporti harakatidan hosil bo‘lgan vaqtincha yuklar sanaladi. Hisoblash sxemalari va hisoblashlarning asosiy shart-sharoitlari ekspluatatsiya jarayonida ko‘priqli oraliq qurilmalari konstruksiyalarining haqiqiy ish sharoitlarini ifodlashi kerak. Loyihada ekstremal tabiiy va texnogen ta’sirlar bilan bir qatorda ko‘priqli inshootning bitta yoki bir nechta elementlarini harakatlanuvchi transport yukidan ishdan chiqishi bilan uning haddan ziyod deformatsiyalanishini va kaskadli buzilishini oldini oluvchi yo‘l qo‘ymaydigan prinsiplar zamonaviy hisoblash modeli usullarini ko‘zda tutish darkor.

Avtomobil yo‘llaridagi ko‘priqli inshootlarning temirbeton to‘sinli oraliq qurilmalari nazariyasini va hisoblash usullarini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari dunyodagi Department of Civil and Environmental Engineering University of California, The Earthquake Engineering Research Institute (SShA), Kyoto university, Seismic Resistance Experiment Center (Yaponiya), National Center for Research on Earthquake Engineering (Xitoy), Rossiya davlat temir yo‘llari universiteti, Peterburg davlat temir yo‘llari universiteti (Rossiya Federatsiyasi), O‘zR FA mexanika va zizilabardoshlik instituti,

Toshkent davlat transport universiteti (O‘zbekiston) kabi yetakchi ilm-fan markazlari va oliy o‘quv muassasalarida bajarilib kelinmoqda.

Ko‘priklarning temirbeton konstruksiyalarini yuklanish ta’siri natijasida deformatsiyalanishi xususiyatlarini hisobga olgan holda, hisoblash usullari quyidagi olimlar A.E. Aktan, Bruel va Kjaer, G. Chellini, J.T. Dewolf, D.Owen, N. A Lloyd, S.S. Law, X. Liu, Bank, L. S, Chen Y, E.E. Gibshman, A. S. Zalesov, B.N. Jemochkin, V.A.Kiselev, B.Ya. Lashchenikov, Ya.D. Livshis, N.Y. Polivanov, K.K. Ponomarev, A.A.Potapkin, K.S. Silin, A.F. Smirnov, N.K. Snitko, I.A. Trifonov, B.E. Uliskiy, A.A. Umanskiy, A.P. Filin, N.N. Shaposhnikov, D. M. Shapiro va b. tomonidan katta ilmiy-tadqiqot ishlari asosida amalga oshirilgan.

Respublikamizda ko‘prik va yo‘l o‘tkazgichlarni hisoblash va loyihalash, ekspluatatsion ishonchliligi sohasida ilmiy izlanishlar A.A. Eshaxadjayev, R.Q. Mamajonov, A. A. Ashrabov, A.X. Abdujabarov, I. Mirzayev, Ch.S. Raupov, S.S. Salixonov, M.X. Miralimov, U. Raxmanov, U.Z. Shermuxamedov, Sh. B. Axmedov va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan.

Ammo, bajarilgan bir qator ilmiy-tadqiqot ishlarda avtoyo‘l ko‘priklari inshootlarining temirbeton qovurg‘ali oraliq qurilmalari to‘sinlariga zamonaviy transport yuklari yoki maxsus katta o‘lchamli nogabarit yuklar ta’sirini taqsimlanishini baholash bilan bog‘liq mustahkamlik masalalariga bag‘ishlangan hisoblashning yetakchi usullari kerakli darajada ko‘rib chiqilmagan va o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy – tadqiqot ishlari rejalari bilan o‘zaro bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent Davlat transport universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi Avtomobil yo‘llaridagi ko‘prik va yo‘l o‘tkazgichlar temirbeton qovurg‘ali oraliq qurilmalari uchun transport yuklarining ta’sirini taqsimlanish qonuniyatini ifodalovchi aniqlashtirilgan hisoblash usulini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

avtomobil yo‘llaridagi ko‘prik va yo‘l o‘tkazgichlar temirbeton qovurg‘ali oraliq qurilmalarining transport yuklari ostida deformatsiyalanish xossalari tavsiflovchi va amaldagi loyihalash me’yorlarining talablarini e’tiborga oluvchi ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil qilish;

temirbeton qovurg‘ali oraliq qurilmalar elementlari bikrlilari va ularda vaqtinchalik transport yuklari ta’sirining taqsimlanishini hisobga oluvchi matematik model, hisoblash sxemasi va usulini yaratish;

mexanikaning ilg‘or sonli usullari yordamida oraliq qurilma bosh to‘sinlariga uzatiladigan transport yuklari ta’sirida paydo bo‘ladigan ichki kuchlarning ta’sir chiziqlarini qurish usullarini ishlab chiqish;

oraliq qurilma elementlarida ichki kuchlar va ko‘chishlarni aniqlovchi tenglamalar tizimini tuzish, nisbatan sodda va aniq bo‘lgan hisoblash algoritmalari va dasturlarini ishlab chiqish;

taklif etilgan matematik model va ishlab chiqilgan usul yordamida O‘zbekiston

respublikasi avtomobil yo'llaridagi real ko'priklar va yo'l o'tkazgichlarning temirbeton -qovurg'ali oraliq qurilmalarini A14, NK-100 va nogaborit me'yordan ortiq yuklar ta'siriga hisoblash ishlarini bajarish, ularning mustahkamligi va yuk ko'tarish qobiliyati darajasini o'rganishga oid tadqiqotlarni olib borish.

Tadqiqotning obyekti sifatida avtomobil yo'llaridagi ko'priklar va yo'l o'tkazgichlarning temirbeton qovurg'ali uzluksiz va uzluksiz oraliq qurilmalari ko'riladi.

Tadqiqotning predmeti Avtomobil yo'llaridagi temirbeton ko'priklar va yo'l o'tkazgichlar oraliq qurilmalarining elementlari, me'yoriy va nome'yoriy transport yuklari ostida, qovurg'asimon tizimli bosh to'sinlari konstruksiyalarning mustahkamligi va yuk ko'tarish qobiliyati.

Tadqiqotning usullari. ko'rib chiqilayotgan tizimlarning matematik modellari, ularning sonli tahlili, qurilish mexanikasining asosiy qoidalari va zamonaviy usullari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

avtomobil yo'llaridagi ko'priklar va yo'l o'tkazgichlarning temirbeton qovurg'ali oraliq qurilmalarini turli ko'rinishdagi transport yuklari ta'siriga hisoblash orqali, zamonaviy qurilish mexanikasining asosiy tenglamalarni qo'llagan holda matematik modeli ishlab chiqilgan;

transport yuklarining taqsimlanishini belgilovchi koeffitsiyentni aniqlash uchun chekli elementlar usuli nazariyasini qo'llagan holda va bunda to'sinlarning egilishi hamda buralish deformatsiyalanishini sterjinli chekli element orqali ifodalash asoslangan;

turli bikrliklarga ega bo'lgan oraliq qurilmalarda transport yuklari harakatlarini modellashtirish asosida bosh to'sinlardagi ichki zo'riqish kuchining ta'sir chizig'ini qurish usuli taklif etilgan;

temirbeton qovurg'ali oraliq qurilmalarning plitasi va qatnov qismi qoplamasining tashkil etuvchi qatlamlari bikrliklarini inobatga olgan holda vaqtinchalik yuklardan tushadigan bosim kuchini kamaytirish uchun ko'ndalang taqsimlash koeffitsiyentini hisoblash usuli takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

vertikal ta'sir qiluvchi vaqtinchalik transport yuklarini ko'priklari inshootlar oraliq qurilmalari bosh to'sinlari va plitasi bo'yicha taqsimlanish qonuniyatlarini aks ettiradigan egilish va buralish bikrliklarini hisobga olinishiga mo'ljallangan matematik model va hisoblash usuli ishlab chiqilgan;

temirbeton qovurg'ali to'sinlarni ko'ndalang taqsimlash koeffitsiyentini aniqlashning qadamli algoritmi oraliq qurilma konstruksiyasi elementlarini kompyuterli hisoblash dasturi ishlab chiqilgan;

qurilish mexanikasining ta'sir chiziqlar nazariyasini qo'llashdagi yondashuvlar yordamida oraliq qurilmalar elementlarida ichki zo'riqish kuchlarini aniqlash usuli ishlab chiqildi va real hisoblashlar amalga oshirildi;

dissertatsiyada qo'lga kiritilgan tadqiqot ishlari natijalari uzluksiz va uzluksiz temirbeton qovurg'ali oraliq qurilmalari mustahkamligini va yuk ko'tarish qobiliyatini baholash uchun tegishli ishlab chiqarish tashkilotlariga taqdim etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.

Tadqiqot ishlari natijalarini ishonchliligi qurilish mexanikasi va elastiklik nazariyasining asoslangan usullaridan foydalanish bilan, taklif etilgan usul bo'yicha bajarilgan hisoblash natijalarini hammaga ma'lum adabiy manbalardan olingan nazariy va eksperimental ma'lumotlar solishtirish bilan izohlandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Qo'lga kiritilgan natijalarning ilmiy ahamiyati hisobiy modellar va nazariy hisoblashlarni amalga joriy etilishi bilan, shuningdek temirbeton qovurg'ali oraliq qurilmalarni hozirgi amaldagi transport yuklari ta'siri ostida mustahkamligini va yuk ko'tarish qobiliyatini hisoblash usullarini ishlab chiqish hamda ulardan foydalanish samaradorligi bilan izohlandi;

Ilmiy-tadqiqot ishlarining amaliy ahamiyati ko'priqli inshootlarning temirbeton qovurg'ali oraliq qurilmalarini fazoviy statik hisoblashga qaratilgan muhandislik dasturiy paketini yaratilishi, va ularning asosida amaliy masalalarni yechish, hamda bundan keyin ulardan foydalanishlarini hisobga olib, tegishli tavsiyalarni taqdim etish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Avtoyo'l ko'priqli inshootlarining temirbeton qovurg'ali oraliq qurilmalarini transport yuklari ta'siriga hisoblash usullarini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishida olingan natijalar asosida:

Taklif etilgan hisoblash usuli Sirdaryo tumanining "Toshkent-Samarqand" temir yo'l liniyasi ustidan o'tgan M-34 avtomobil yo'lining PK82+460 km dagi yo'l o'tkazgichning temirbeton qovurg'ali oraliq qurilmalarini mustahkamligini tekshirishda qo'llanilgan. "Ko'priq qurilish" AJ tashkilotida joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2024 yil 9 oktyabrdagi №4/9532-sonli malumotnomasi). Natijada yo'l o'tkazgichning temirbeton qovurg'ali oraliq qurilmalarini mustahkamligini 9 % oshirishga erishilgan;

M-34 avtomobil yo'lining PK82+460 km dagi yo'l o'tkazgichning oraliq qurilmalarining plitasi va qatnov qismi qoplamasi birgalikda ishlashi orqali yuk ko'tarish qobiliyatini oshirish jarayonida amaliyotga "Ko'priq qurilish" AJ tashkilotida joriy etilgan. (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2024 yil 9 oktyabrdagi №4/9532-sonli malumotnomasi). Natijada ko'priqli inshootlarida yuk ko'tarish qobiliyati hamda ularning zahirasi yetarli darajada samarali himoyalashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya mavzusiga doir tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro (3 ta SCOPUS bazasida) va 1 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, jumladan 8 ta maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, shundan 4 ta mahalliy va 4 ta xorijiy jurnallarda (3 tasi SCOPUS bazasida indekslangan) nashr qilingan. Shuningdek, 3 ta EHM dasturi uchun O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan mualliflik guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, dissertatsiyaning hajmi 112 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan bo‘lib, olib borilgan tadqiqotning asosiy maqsadi va masalalari ifodalangan, tadqiqotning obyekt va predmeti tavsiflangan, Respublikaning fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan.


Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasi avtomobil yo‘llarida ekspluatatsiya qilinuvchi ko‘prik inshootlarining bugungi holati”** deb nomlangan birinchi bobida O‘zbekiston Respublikasining avtomobil yo‘llaridagi ekspluatatsiya qilinayotgan ko‘prik inshootlarini holati tahlil qilindi. Respublikamiz yo‘l tarmog‘idagi loyihalananayotgan va qurilayotgan temirbeton ko‘prik inshootlari ichida temirbeton qovurg‘ali oraliq qurilmalar va tavr, qo‘shstavrli to‘sinlardan foydalanishning tajribasi ko‘rsatib o‘tildi (1-rasm).

Hozirgi zamon talablariga javob beradigan yangi ko‘prik va yo‘l o‘tkazgichlarni qurish hamda mavjudlarini rekonstruksiya qilinishi shaharsozlikning eng asosiy tashkil etuvchilaridan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtga kelib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli buyruq va farmonlarini amalga oshirish borasida 2022-2023 yy. Transport vazirligi qoshidagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tomonidan 8,209 ming kilometr yo‘llar va 63 ta ko‘prik ta‘mirlandi.

a)



b)




1- zo‘riqtirilgan armaturali plitali, 2 - zo‘riqtirilmagan armaturali qovurg‘ali tavr to‘sinli, 3 - zo‘riqtirilgan armaturali qovurg‘ali qo‘shstavrli to‘sinli

1-rasm. Uzlukli temirbeton oraliq qurilmalardan iborat ko‘prikli inshootlarning umumiy soni (foizda): a) viloyatlarning markaziy shaharlari, shu jumladan Toshkent shahri avtomobil yo‘llarida; b) xo‘jaliklar, shaharchalar va qishloqlarning avtomobil yo‘llarida

2023-2027 yillar. davomida respublika byudjeti hisobidan jami 92,183 ming kilometr avtomobil yo‘llari, 1,532 mingdan ortiq ko‘prik va yo‘l o‘tkazgichlarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash, shuningdek mavjud 1512 ko‘prikli inshootlarni hamda respublikaning boshqa ta‘mirtalab sun‘iy inshootlarini bosqichma-bosqich rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash ishlari rejalashtirilgan. Shuni qayd etish lozimki, O‘zbekiston Respublikasining umumfoydalanishdagi avtomobil

yo'llarida 7 mingdan ortiq ko'priklar ekspluatatsiya qilinmoqda (shu jumladan, 93 foizini temirbeton va tosh ko'priklar, 7 foizini metall ko'priklar tashkil etadi). Ularning aksariyati o'tgan asrning 70-80-yillarida qurilgan edi. Ko'priksizlikda asosan yig'ma temirbeton elementlaridan foydalaniladi.

2-Rasmda O'zbekiston Respublikasining amaldagi me'yorlarida qabul qilingan A14 tasmalar ko'rinishidagi yuklar, shuningdek Yevropa davlatlarida qabul qilingan yuklarga doir ma'lumotlar keltirilgan. A14 tasmalar ko'rinishidagi ekvivalent yuklar ham 20,0 metrli oraliqlarda Yevropa davlatlari me'yorlariga nisbatan ancha kichikligini, ammo 10,0 metrli oraliqlarda ushbu me'yorlarga yaqinlashishini ko'rish mumkin.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi va Yevropa davlatlari me'yorlari bo'yicha yuklarning modellari: 1) O'zbekiston, 2) Fransiya, 3) Germaniya, 4) Norvegiya, 5) Shveysariya, 6) Niderlandiya

Avtomobil transportining yuk ko'tarishi hamda harakat jadalligini oshishi ko'pchilik ko'priklar inshootlar hozirgi zamon ekspluatatsiya talablariga javob bera olmasligi, nuqson va shikastlarga ega bo'lishiga olib keladi.

Bugungi kunda ko'priklar va yo'l o'tkazgichlarning temirbeton qovurg'ali oraliq qurilmalarini ko'ndalang taqsimlash koeffitsiyentlarini inobatga olib bosh to'sinlarda bosimni hisoblash usullarini 3-ta guruhga ajratish mumkin:

- richag usuli;
- markazdan tashqari siqilish usuli;
- elastik tayanchlar usuli;

Ushbu usullarning kamchiligi:

- richag usulida maksimum 3 ta bosh to'sin oralig'i deformatsiyasi hisobga olinadi va u asosan ko'priklar tayanchlari ustida joylashgan oraliq qurilma chekka qismida ishlatilishi mumkin;

- markazdan tashqari siqilish usuli bikrligi o'ta yuqori bo'lgan oraliq qurilmalar uchun ishlatiladi va oraliq qurilma deformatsiyalanishi hisobga olinmaydi, bundan tashqari bosh to'sin bikrliklarining har xilligi e'tiborga olinmaydi;

- elastik tayanchlar usulida qatnov qismi plitasi asosiy to'sinlardan iborat elastik cho'kayotgan tayanchlarda joylashgan uzluksiz to'sin sifatida qabul qilinadi. Oraliq qurilmaning asosiy yuk ko'taruvchi elementlariga ta'sir etuvchi bosim kuchi ta'sir chiziqlari ordinatalari yoki ko'ndalang kesim bo'yicha bosh to'sinlarlar soni 3 dan 8 gacha bo'lganda shu ordinatalarni aniqlash uchun mo'ljallangan empirik nomogrammalardan foydalaniladi. Amalga oshirilgan tadqiqotlarning to'liq tahlili

yoqorida keltirilgan empirik usullarning bir qator kamchiliklaridan aniqlashga imkon berdi va ko‘priqli inshootlarni deformatsiyalanish holatini (DH) amaliy maqsadlar uchun yetarli aniqlik bilan baholashga imkon beruvchi oraliq qurilmalarni hisoblashning yanada takomillashtirilgan usullarini ishlab chiqilishi zaruriyati borligini ko‘rsatdi.

Dissertatsiyaning “**Transport yuklari ta’siri ostidagi oraliq qurilmaning deformatsiyalanishini modellashtirish**” deb nomlangan ikkinchi bobida Ko‘priqli inshootlar oraliq qurilmasini yuklanish sxemalari keltirildi, Transport yukidan ixtiyoriy bosh to‘singa tushadigan bosim ulushini aniqlash usuli va ko‘ndalang taqsimlash koeffitsiyentlarini (KTK) aniqlash usulini sonli ko‘rinishda joriy etilishi bosqichlari ko‘rsatib o‘tildi.

Ko‘ndalang taqsimlash koeffitsiyentlari yordamida oraliq qurilmaning u yoki bu to‘siniga to‘g‘ri keladigan vaqtincha yuklanish xissasini va ulushini aniqlaymiz. Bunda to‘sinlar orasida yuklanishni taqsimlanish xususiyatlari oraliq qurilmaning ko‘ndalang bikrligiga bog‘liqdir.

Shu sababli soni r ga teng qovurg‘ali to‘sinli temirbeton oraliq qurilmani ko‘rib chiqamiz (3-rasm). Buning uchun oraliqqa ko‘ndalang yo‘nalishda $b=1m$ kenglikdagi oraliq qurilmadan tasmani qirqib olamiz va to‘sinlararo yuklanishni taqsimlanish tamoyilidan foydalanamiz. Ushbu tamoyil bo‘yicha oraliq qurilmaga elastik bo‘ylama tayanchlarga, ya‘ni bosh to‘sinlarga tayanadigan va sterjenli tizimni hosil qiladigan plita sifatida qaraladi. Bu tizimni n ta tugunlar va m ta sterjen elementlariga ajratamiz (4-rasm).

Yassi sterjenli tizimning i tuguniga jamlangan kuchlar (gorizontal kuchlardan tashqari) bilan ta‘sir etishi mumkin:

$$\begin{aligned} \bar{P}_i^X &= 0 - X \text{ o‘qi bo‘ylab;} \\ \bar{P}_i^Y &= 1 - Y \text{ o‘qi bo‘ylab;} \\ \bar{M}_i &= 1 - i \text{ tugunga ta‘sir etuvchi moment.} \end{aligned}$$

Shunda har bir to‘sin uchun, uzluksiz plita konsollariga qo‘yilgan birlik vertikal yuk $\bar{P}_i^Y = 1$ dan va jamlangan eguvchi moment $\bar{M}_i = 1$ dan hosil bo‘ladigan bosim R ni ta‘sir etish chiziqlarini o‘tkazish kerak bo‘ladi.

Shunday qilib, XOY tekisligida birlik kuchlar \bar{P}_i^Y va \bar{M}_i ning jami tugunga qo‘yiladigan kuchlarning vektorini hosil qiladi:

$$\vec{\bar{P}}_i = [0 \quad \bar{P}_i^Y \quad \bar{M}_i]^T \quad (1)$$

($\mathbf{n-r}$) tugunlarga ta‘sir etuvchi barcha tashqi kuchlarning yig‘indisi quyidagi ko‘rinishda ifodalanishi mumkin:


$$\begin{aligned} \vec{\bar{P}} &= [\vec{\bar{P}}_1 \quad 0 \quad 0 \dots \dots 0]^T - \text{jamlangan kuchlar 1- chi tugunda joylashganida;} \\ \vec{\bar{P}} &= [0 \quad 0 \quad \vec{\bar{P}}_i \dots \dots 0]^T - \text{jamlangan kuchlar i- chi tugunda joylashganida;} \\ \vec{\bar{P}} &= [0 \quad 0 \quad 0 \dots \dots \vec{\bar{P}}_{(n-r)}]^T - \text{jamlangan kuchlar } (\mathbf{n-r})\text{-chi tugunda} \\ &\text{joylashganida.} \end{aligned}$$

Har bir biki tugun uch xil ko‘chishga ega bo‘lishi mumkin: U_i - X o‘qi bo‘yicha; V_i - Y o‘qi bo‘yicha; φ_i - burilishga. U_i , V_i , φ ko‘chishlar i tugunning ko‘chish vektorini hosil qiladi.


$$\vec{Z}_i = [U_i \quad V_i \quad \varphi_i]^T \quad (2)$$

n ta tugunlarda hosil bo'ladigan ko'chishlarning hamisi quyidagi ko'rinishda ifodalanishi mumkin:

$$\vec{Z} = [\vec{Z}_1 \quad \vec{Z}_2 \quad \vec{Z}_i \dots \dots \vec{Z}_n]^T \quad (3)$$



3-rasm. Transport yuklari ta'siri ostida oraliq qurilmani deformatsiyalanishi sxemasi



4-rasm. Oraliq qurilmaning ko'ndalang sterjenli tizimi

Yassi sterjenli tizimlar uchun qurilish mexanikasining umumiy tenglamalar tizimini taqdim etish orqali, ko'chish vektoriga nisbatan ushbu ifodani hosil qilamiz:


$$(AD^{-1}A^T)\vec{Z} = \vec{P} \quad (4)$$

Shunday qilib, masalaning muvozanat tenglamalarining (chiziqli algebraik tenglamalar) tizimi quyidagi ko'rinishda ifodalanishi mumkin:

$$K\vec{Z} = \vec{P} \quad (5)$$

bunda K – konstruksiya bikrligining chekli elementlar bikrlilik matrisalari bloklaridan tashkil topgan kvazidiagonal matritsasi.


Elastik tayanch-ustunlarni modellashtiruvchi sterjenli ChE ni bikrlilik matritsasini topish zarur. Bunda, tayanch-ustunlarning elastik parametrlari (bikrliliklari) egilish y_r va burilish burchagi θ_r ning funksiyasi ekanligini va ular bo'ylama yo'nalish bo'yicha, ya'ni oraliq qurilmaning bosh to'sinlari bo'yicha har xil ekanligini anglash zarur (5-rasm, a).



5-rasm. Oraliq qurilma tarkibidagi to'sinning birlik tashqi kuchlar ta'siri natijasida deformatsiyalanish sxemasi: a) ko'ndalang yo'nalishda gorizontal tekislikda; b) bo'ylama yo'nalishda vertikal tekislikda

Sterjenli tizimning alohida bir tayanch-ustunining vertikal deformatsiyalanishdagi bikrligi oraliq qurilma elementlarining deformatsiyalarini tengligi shartidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bu holda bosh to'sinning chegaraviy shartlari sharnirli bog'lanish bo'ladigan bo'lsa (ko'priqli inshootlarning uzlukli oraliq qurilmalari uchun), u holda to'sinning ushbu chegaraviy sharti uchun egilishdagi asosiy ifodasidan kelib chiqib birlik taqsimlangan $\bar{p}=1t/m$ kuchlar ta'siridan egilishdagi salqiligi bo'yicha quyidagi bog'lanishni yozishimiz mumkin (5-rasm, b):

$$\delta = y_r(z) = \frac{\bar{p}zL^3\left(1 - \frac{2z^2}{L^2} + \frac{z^3}{L^3}\right)}{24EI_{r6}} \quad (6)$$



6-rasm. Sterjenli ChElar: a) I-turi, b) II-turi

Ma'lumki, ChEU ning asosiy g'oyasi ixtiyoriy uzluksiz kattalikni ko'p sonli bo'lakli-uzlukli funksiyalardan tuziladigan diskret model bilan approksimatsiyalash mumkinligidan iborat. Shundan kelib chiqib tegishli tarzda bir qancha matematik o'zgartirishlarni amalga oshirib yassi tayanch-ustunning sterjenli II-chi turiga mansub ChE uchun (6-rasm, b), yangi ko'rinishdagi bikrlilik matritsasini olamiz:


$$k_{II} = \begin{bmatrix} \frac{EFc(z)}{h} & 0 & 0 & -\frac{EFc(z)}{h} & 0 & 0 \\ 0 & \frac{12EIc(z)}{l^3} & \frac{6EIc(z)}{l^2} & 0 & -\frac{12EFc(z)}{h^3} & \frac{6EIc(z)}{h^2} \\ 0 & \frac{6EIc(z)}{h^2} & \frac{4EIc(z)}{h} & 0 & -\frac{6EIc(z)}{h^2} & \frac{2EIc(z)}{h} \\ -\frac{EFc(z)}{h} & 0 & 0 & \frac{EFc(z)}{h} & 0 & 0 \\ 0 & -\frac{12EIc(z)}{h^3} & -\frac{6EIc(z)}{h^2} & 0 & \frac{12EIc(z)}{h^3} & -\frac{6EIc(z)}{h^2} \\ 0 & \frac{6EIc(z)}{h^2} & \frac{2EIc(z)}{h} & 0 & -\frac{6EIc(z)}{h^2} & \frac{4EIc(z)}{h} \end{bmatrix} \quad (9)$$

Rezinali tayanch qismlari (RTQ) oraliq qurilmalari to'sinlari tagida o'rnatiladigan bo'lsa, (6) formula quyidagicha yozilishi mumkin:

$$\delta = y_r(z) = \frac{\bar{p}zL^3\left(1 - \frac{2z^2}{L^2} + \frac{z^3}{L^3}\right)}{24EI_{r6}} + \frac{\bar{p}L}{2k_p} \quad (7)$$

Rezinali tayanch qismlarining vertikal bikirligi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$k_p = \frac{AE_p}{\Delta} \quad (8)$$



7-rasm. Sterjenli tizimning bosim R_i ning ta'siri chizig'ini va KTK larni aniqlashga doir masalani yechish algoritmi sxemasi

Yuqorida qayd etib o'tilgan formulalarda: δ – ikkita tayanchga o'rnatilgan bosh to'sinning ustida teng taqsimlangan $\bar{p}=1$ t/m yukning ta'siri natijasida hosil bo'lgan egilish (solishtirma salqilik); L – bosh to'sin oralig'i; I_{gb} – bosh to'sin kesimining inersiya momenti; f – to'sin uzunligi bo'yicha taqsimlangan birlik $\bar{m}=1$ tm/m teng burovchi momentdan hosil bo'ladigan to'sinning buralish burchagi (solishtirma burilish burchagi); G – bosh to'sin materialining siljishdagi moduli (amaliy hisoblashlar uchun $G = 0.4E$ deb qabul qilinadi); $I_{k,r\delta}$ – bosh to'sin kesimining buralishdagi inersiya momenti; h – tayanch-ustunning uzunligi (balandligi); F_c, I_c – tayanch-ustunning ko'ndalang kesimi hamda kesimning inersiya momenti; k_p – RTQ ning vertikal bikirligi; Δ, A, E_p – tayanch qismi qalinligi, gorizontol kesim yuzasi va tayanch qismining elastiklik moduli.

7-rasmda masalani yechish algoritmi hamda sterjenli tizimning barcha tayanch-ustunlari uchun bosim R_i ta'sir chizig'ini aniqlanishi ko'rsatilgan.

Ishlab chiqilgan usulni ishonchliligini baholovchi modeli masalalar yechildi va olingan natijalar ishlab chiqilgan hisoblash usulining real masalalarga tatbiq etilishi mumkinligini ko'rsatdi.

Dissertatsiyaning **“Konstruktiv elementlar bikrligi o'zgarishini inobatga oluvchi oraliq qurilmalarni hisoblash usuli”** deb nomlangan uchinchi bobida temirbeton oraliq qurilmalar to'sinlari bikrligini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar ko'rsatib o'tiladi. Bajirilgan ishlarning tahlilidan kelib chiqib, hozirgi kungacha temirbeton to'sinlardagi shikastlanishlarni ajratib ko'rsatish va u yoki bu shikastlanishlarning quyidagilarga ta'sirini hisobga olgan holdagi tasnifini keltirish mumkin:


- beton mustahkamligini kamayishi;
- kesim maydoni, inersiya momenti va bikrligini kamayishi;
- yuk ko'tarish qobiliyatini kamayishi.

Hozirgi vaqtda temirbeton qovurg'asimon ko'priklari inshootlar elementlarining bikrlik parametrlarini hisobga olish usuliga yagona yondashuv yo'q, chunki, amaliyot ko'rsatganidek, ko'priklari inshootlarini ekspluatatsiya qilish jarayonida qatnov qismi plitalari hamda to'sin qovurg'alarida nuqsonlar to'planib boradi. Temirbeton ko'priklari inshootni qurish va ekspluatatsiya qilish jarayonlarida oraliq qurilmalarni ayrim uchastkalaridagi qatnov qismining temirbeton plitalarida murakkab kuchlanishlar hosil bo'ladi.


Masala yechimini topilishiga zarurat transportdan tushadigan yukning ta'siri natijasida deformatsiyalarga uchraydigan umumiy fazoviy tizim elementlari sifatida oraliq qurilma to'sinlari hamda qatnov qismi plitalarining birgalikda bog'langan holda ishlashi bilan bog'liq.

Transport vositalari va piyodalar bilan erkin tarzda yuklangan vaqtdagi qovurg'asimon to'sinlar soni r ga teng bo'lgan temirbeton oraliq qurilmani ko'rib chiqamiz (8-rasm, a). Faraz qilaylik, oraliq qurilma elementlarining bikrlik parametrlarida o'z aksini topgan ma'lum nuqson va shikastlar mavjud, masalan, bir necha yil davomidagi ekspluatatsiyadan so'ng oraliq qurilmaning turli uchastkalaridagi to'sinlar bikrligi har xil bo'lib qolgan (8-rasm, b). ya'ni $B_1 \neq B_2 \neq \dots \neq B_j, D_1 \neq D_2 \neq \dots \neq D_r$.

Bu yerda $B_j = (EI_p)_j$ – qatnov qismi alohida uchastkasining bikrligi. $D_r = (EI_{bto})_r$ – bosh to'sin alohida uchastkasining bikrligi. Bo'ylama yo'nalishda ayrim alohida bosh to'sinlar ham ko'ndalang kesim maydoni yoki elastiklik moduli kabi o'zgargan bikrlik parametrlarga ega bo'lishi mumkin (8-rasm, b).




b)




8-rasm. Oraliq qurilma kengligi bo'yicha yuklanishlar: a) oraliq qurilmani transport vositalari va piyodalar bilan yuklanishidagi hisoblash sxemasi; b) nuqson va shikastlar natijasida oraliq qurilma elementlarida turli xil ehtimoliy bikrliklar

Sterjenli tizimlarni hisoblash va tahlil qilishda ko'p qatlamlik g'oyasini kiritsak, undagi materiallarining mexanik xossalarini va joylashish shaklini ham inobatga olishga to'g'ri keladi. Oraliq qurilma konstruksiyasi ko'ndalang kesim yuzasi $F_1 \neq F_2 \neq \dots \neq F_n$, elastik moduli $E_1 \neq E_2 \neq \dots \neq E_n$ va inersiya momentlari $I_1 \neq I_2 \neq \dots \neq I_n$ turlicha bo'lgan n ta qatlamlardan iborat deb qaraladi (9-rasm). Hisoblash ishlarini amalga oshirish uchun ko'p qatlamni bitta yagona ekvivalent qatlama keltirib olamiz, ya'ni bunda ekvivalent qatlam umumiy yuza, umumiy elastiklik moduli va umumiy inersiya momentiga ega bo'ladi.




9-rasm. Oraliq qurilma qatnov qismi qoplamasi va to'sin plitasining birgalikda qaralayotgan kesimi ko'rinishi


Dissertatsiyaning “**Real ko'priqli inshootlarga ishlab chiqilgan usulning qo'llanishi**” deb nomlangan to'rtinchi bobida birinchi bo'lib uzunligi 42 m bo'lgan yig'ma-monolit oraliq qurilmani deformatsiyalanishini tadqiq qilindi. Yo'l o'tkazgichning kengligi «23,0+0,2+23,0 m» sxemaga muvofiq, ammo ikkita alohida yo'ldan iborat. Oraliq qurilmaning har bir tomoni uzunligi 42,0 m va balandligi 2,0 m teng 10 ta individual loyiha asosida tayyorlangan va oldindan zo'riqtirilgan armaturali temirbeton to'sinlardan iborat (10-rasm).



10-rasm. Uzunligi 42 m oraliq qurilmaning ko'ndalang kesimi




11-rasm. Uzunligi 42 m va o'rta qismida monolit plita o'rnatilgan to'sinning ko'ndalang kesimi




12-rasm. Oraliq qurilmani yuklantirish sxemasi

To'sinlar betoni sinfi B45, to'sinni zo'riqtirib armaturalanishi 12 ta K-7 kanatlar bog'lamidan iborat, plita qismi esa Ø12 A400 armaturalar yordamida zo'riqtirilgan, faqat bunda betonning B40 sinfidan foydalanilgan (11-rasm).

Oraliq qurilmani yuklantirish sxemasi 12-rasmda keltirilgan, bunda oraliq qurilmani yuklantirishning uchta varianti ko'rib chiqiladi: "A14+piyoda", "A14" va "NK-100" yuklari. Hisoblashlar natijasida topilgan eguvchi momentlarning maksimal qiymatlari 13 va 14-rasmlarda keltirilgan.



13-rasm. Oraliq qurilma o'z og'irligi (qatnov qismi qoplamasi bilan) hamda transport yukining ta'sirida qatnov qismi plitasini umumiy ishda ishtiroki natijasida hosil bo'lgan eguvchi momentlar epyurasi (tm)




14-rasm. Oraliq qurilma o'z og'irligi (qatnov qismi qoplamasi bilan) hamda plitada "A14+piyoda" sxemasi bo'yicha maxalliy transport yuklanishi bilan yuklantirilgan holadagi qatnov qismi plitasini umumiy ishda ishtiroki natijasida hosil bo'lgan eguvchi momentlar epyurasi (tm)

Hisoblashlar natijasida mavjud to'sinlarda katta zahira borligi aniqlandi va ulardagi ishchi armaturalar sonini kamaytirish uchun tavsiyalar berildi. Shundan kelib chiqib aniqlanadigan iqtisodiy samaradorlik bitta 42 m lik oraliq qurilma uchun 10,797,380 so'mligi aniqlandi.

Vazirlar Mahkamasining 2022 y. 30 dekabr 465-son qarori asosida loyihalangan Sirdaryo tumanidagi "Toshkent-Samarqand" temiryo'l liniyasi ustidan PK82+460 km o'tgan M-34 avtomobil yo'lidagi yo'l o'tkazgichini oraliq




qurilmasini mustahkamlikka hisoblash ishi bajarildi (15-rasm). Yo‘l o‘tkazgich sxemasi 5x24 m, umumiy gabariti G=24.85 m teng alohida oraliq qurilmali (mavjud yo‘l o‘tkazgichning gabariti G=9,5 m, yangisniki esa G=10,5 m), trotuarlari 0,8 m va 0,75 m dan iborat.



15-rasm. Uzunligi 24 m oraliq qurilmaning ko‘ndalang kesimi


Topilgan natijalarni tahlildan ko‘rinadiki, qatnov qismi qoplamasi qatlamlari bikrligini hisobga olinishi oraliq qurilmadagi vaqtincha transport yuklari ta‘sirini taqsimlanishini o‘zgartirib yuborar ekan (16-rasm). Oraliq qurilma plitasining bikrligi oshgan sari o‘rta to‘sinlar uchun bosim kuchi ta‘sir chizig‘i ordinatalari va KTK qiymatlari A14 yuklari uchun anchagina kamaydi. Har bir to‘sin uchun qatnov qismi qoplamasining bikrligini hisobga olingan va olinmagan holda hisoblangan KTK qiymatlari aniqlandi. Shunday qilib, olingan natijalarga asosan oraliq qurilmning yuk ko‘tarish qobiliyati ta‘minlangan va qatnov qismi qoplamasi bikrligini hisobga olinishi eng katta zo‘riqishga ega to‘sinda eguvchi momentning qiymatini deyarli 9% kamayishiga olib keldi, degan xulosaga kelish mumkin (17-rasm).

A-380 avtomobil yo‘lining 640+200 km dagi ko‘prikdan og‘ir vaznli va katta gabaritli nome‘yoriy yukni o‘tishi rejalashtirilishi bilan ko‘rikdan o‘tkazish ishlari 15.05.2024 sanada olib borildi va yuk ko‘tarish qobiliyatini aniqlash masalasi yechildi.



16-rasm. “A14+piyoda” yuklanish sxemasi bo‘yicha hisoblab topilgan KTK qiymatlari:

- a) piyodalardan tushayotgan yuki uchun;
- b) A14 ning yoyilgan tasmali yuki uchun;
- v) A14 ning aravali yuki uchun: 1-qatnov qismi qoplamasi qatlamlari bikrligi hisobga olinmaganda; 2 – qatnov qismi qoplamasi qatlamlari bikrligi hisobga olinganda




17-rasm. Eng katta eguvchi momentlarning oraliq qurilmada taqsimlanishi:
1-qatnov qismi qatlamlari bikrligi hisobga olinmaganda; 2 – qatnov qismi qatlamlari bikrligi hisobga olinganda


Ekspluatatsiya jarayoni davomida gidrozolyasiyaning himoyalash xususiyatlari yo‘q bo‘lib ketgan. Buni tayanch qoziqlari hamda oraliq qurilmalarning monolitlangan choklarida betonni ishqorli yuvilish holatlarida ko‘rish mumkin. Oraliq qurilma to‘sinlarining o‘rta qismlarida, to‘sinlarning qovurg‘alarida beton ko‘chkilar mavjud bo‘lib, monolitlash choklarida himoya qatlamlar kamayishi hisobiga ko‘ndalang armaturalar ko‘rinib qolga (18-rasm). Ushbu nuqsonlar tahlilidan hisobiy uzunligi 14,4 m bo‘lgan 5 dona to‘sinlar har birining bikrligi 12% foizga pasaygani ma’lum bo‘ldi (19-rasm).



18-rasm. Oraliq qurilma plita qismidagi shikastlanishlar



19-rasm. Oraliq qurilmani yuklantirish va plita qismidagi shikastlanishlar



20-rasm. Har bir to‘sin uchun qurilgan ichki zo‘riqish bosimining ta‘sir chizig‘i: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8 – to‘sinlar soni


Vaqtincha transport yuki sifatida nogabarit transport vositalaridan tushadigan me‘yordan ortiq yuk ko‘rib chiqildi. Bunda vazni 527,5 t bo‘lgan umumiy yuk, soni 22 dona va oralig‘i 1,5 m ni tashkil etuvchi treyler o‘qlariga bo‘ylama yo‘nalish bo‘yicha taqsimlangan. 20-rasmda har bir to‘singa taqsimlanuvchi tashqi nome‘yoriy yukdan paydo bo‘lgan ichki zo‘riqish kuchi bosimining ta‘sir chizig‘i epyuralari keltirilgan. KTK qiymatlarini treyler g‘ildiraklari ostidagi ichki zo‘riqish kuch bosimi ta‘sir chizig‘i ordinalari yig‘indisi orqali aniqlaymiz. Ishlab chiqilgan

usul va hisoblash dasturidan to‘sinlar bo‘yicha aniqlangan momentlar epyurasining qiymatlaridan olingan to‘sindagi maksimal moment $M_{vaaq} = 157,312 \text{ tm}$ ga teng. Treyler o‘qiga tushuvchi yuk sinfi $K_E=23,98$ hisobga olinganida, quyidagilarni e‘tiborga olib yukning ruxsat etilgan sinfini aniqlandi:


$$K_D = \left(\frac{M_{cheg} - M_{doim}}{M_{vaaq}} \right) K_E = \frac{140,9 - 69,23}{157,312} 23,98 = 10,93$$

Demak oraliq qurilmaning yuk ko‘tarish qobiliyati usbu ko‘rinishda ($10,93t < 23,99t$) 2,19 barobar kamaygan. Ko‘prik yukni ko‘tara olmaydi. Shuning uchun ko‘prikda ta‘mirlov ishlarini bajarish kerak va treyler o‘qidan tushayotgan yukni konstruktiv usulda kamaytirish tavsiya etiladi (21-Rasm).

a)



b)



21-rasm. Nome‘yoriy yukni treyler o‘qlariga taqsimlanishi: a) mavjud sxema, b) taklif etilayotgan sxema

XULOSA

1. Temirbeton qovurg‘ali oraliq qurilmalar elementlari bikriklari va ularda vaqtinchalik transport yuklari ta‘sirining taqsimlanishini hisobga oluvchi matematik model, hisoblash sxemasi va usuli yaratildi.

2. Transport yukidan ixtiyoriy bosh to‘singa tushadigan vertikal bosim kuchi ulushini aniqlash usuli ishlab chiqildi, bosim kuchining ta‘sir chizig‘ini qurish yo‘li keltirildi va ko‘ndalang taqsimlash koeffitsiyentlarini aniqlash usulini sonli ko‘rinishda joriy etuvchi algoritmlar va hisoblash dasturi yaratildi.

3. Temirbeton qovurg‘ali oraliq qurilmalar bosh to‘sinlaridagi ichki zo‘riqish kuchining ta‘sir chizig‘ini qurishda chekli elementlar usuli nazariyasi foydalanildi va to‘sinlarda egilishi va buralish deformatsiyasini ifodalovchi yangi chekli elastik element yaratildi.

4. Ishlab chiqilgan usulni va algoritmlarni ishonchliligini baholovchi modeli masalalar yechildi, olingan natijalar hisoblash usulining real masalalariga tatbiq etilishi mumkinligini ko‘rsatdi.

5. Noan‘anaviy yondashuvlar va qurilish mexanikasining ilg‘or sonli usullari yordamida temirbeton qovurg‘ali oraliq qurilmalarda tashqi yuklar qiymatining taqsimlanish parametrlari va koeffitsiyentlarini inobotga olish, oraliq qurilma elementlarida ichki kuchlar va ko‘chishlarni aniqlovchi tenglmalar sistemasini tuzish, “Bridge_Ram, Form Ram, Formnag_Ram, Solve_Ram, Result_Ram, Line Ram” nimdasturlaridan foydalangan holda algoritmlarini va avtomatlashtirilgan hisoblash dasturlarini ishlab chiqish ishlari bajarildi;

6. Har xil gabaritli va o'lchamli yangi hamda ekspluatatsiya qilinayotgan ko'priklari inshootlarni mustahkamligi va yuk ko'tarish qobiliyatini aniqlash bilan bog'liq masalalarni yechish va olingan natijalarni amaliyotga tatbiq etish, nuqsonlarga ega bo'lgan inshootni vaqtinchalik yuklar bilan yuklanganda oraliq qurilmada transport yukini taqsimlanishini aniqlanish ishlari bajarildi. Natijada loyiha tashkilotlariga aniq hisob kitoblar topshirildi va yechimlar ko'rsatildi.

7. Ishlab chiqilgan usul yordamida O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llaridagi real ko'priklar va yo'l o'tkazgichlarning temirbeton qovurg'ali oraliq qurilmalarini A14, NK-100 va nogaborit me'yordan ortiq yuklar ta'siriga hisoblash ishlari bajarildi, ularning mustahkamligi va yuk ko'tarish qobiliyati darajasini o'rganishga oid tadqiqotlar olib borildi. Natijada ishlab chiqilgan usul yordamida bir oralig'i 42 m lik oraliq qurilma uchun 289,447,600 so'm iqtisodiy samaradorlikga erishish mumkinligi taklif etildi.

8. Ko'priklari inshootlar oraliq qurilmalari deformatsiyalanishida qatnov qismi plitasini ustida joylashtiriluvchi qatlamlarni umumlashtirilgan bikrlilik qiymatlari bilan olinishi ko'ndalang taqsimlash koeffitsiyentini qiymatiga sezilarli tarzda ta'sir qilishi aniqlandi. Natijada oraliq qurilmaning maksimal moment 9% ga kamayishi ko'rsatildi.

9. Ekspluatatsiya qilinayotgan shikastlanishlari bor ko'priklardan nome'yoriy yukni o'tkazish uchun uning yuk ko'tarish qobiliyatini aniqlash masalasi yechildi, ruxsat etilgan yuk sinfi nome'yoriy yuk sinfidan deyarli 2,19 barobar kamligi aniqlandi. Natijada ko'priklarda ta'mirlov ishlarini bajarish kerakligi qayd qilindi va yuklarni o'tkazish uchun ko'priklar konstruksiyalarini kuchaytirish ishlari kerakligi va yuk tashuvchi treylarning yangi sxemasi taklif etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.15/31.08.2022.Т.73.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТРАНСПОРТНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТРАНСПОРТНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

МЕНГЛИЕВ ИСМОИЛ АБДУНАЗАР ЎҒЛИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ РАСЧЕТА
ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫХ РЕБРИСТЫХ ПРОЛЕТНЫХ СТРОЕНИЙ
АВТОДОРОЖНЫХ МОСТОВЫХ СООРУЖЕНИЙ НА ВОЗДЕЙСТВИЯ
ТРАНСПОРТНЫХ НАГРУЗОК**

**05.09.02 – “Геотехника”
(Мосты, транспортные тоннели и метрополитены)**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Высшем образовании, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.3.PhD/T4965.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном транспортном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (разюме)) размещен на веб-сайте Научного Совета (www.tstu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Миралимов Мирзохид Хамитович
доктор технических наук (DSc), доцент

Официальные оппоненты:

Юлдашев Шарафитдин Сайфитдинович
доктор технических наук, профессор
Ювмитов Анвара Сайфуллаевич
доктор философии по техническим наукам (PhD), старший научный сотрудник

Ведущая организация:

Ташкентский архитектурно-строительный университет

Защита диссертации состоится «06» марта 2025 года в 15⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.15/31.08.2022.T.73.04 при Ташкентском государственном транспортном университете. (Адрес: 100167., г. Ташкент, ул. Темирйўлчилар, 1., ауд. 259.

Тел.: (+99871) 299-00-01; факс: (99871) 293-5754; e-mail: rektorat@tstu.uz, tashiit@exat.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета (зарегистрирована № 224). (Адрес: 100067., г. Ташкент, ул. Темирйўлчилар, 1. Тел.: (+99871) 299-05-66).

Автореферат диссертации разослан «25» февраля 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 19 от «25» февраля 2025 года).

А.И. Адилходжаев
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

У.З. Шермухамедов
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

А.А. Ишанходжаев
Председатель научного семинара при Научном совете
по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Мосты являются неотъемлемой частью любой транспортной системы и их надежность и безопасность являются актуальными вопросами во всем мире. В настоящее время проблемы, связанные со старением мостов, увеличением нагрузок, природными катастрофами и финансовыми ограничениями, приобретают глобальное значение. Многие мосты были построены в прошлом веке и не соответствуют современным транспортным и климатическим условиям. Решение этих вопросов требует внедрения новых технологий, инновационных материалов, передовых методов проектирования и расчетов для обеспечения прочности и долговечности мостов. В развитых странах, таких как США, Швейцария, Южная Корея, Россия, Китай, проектирования мостов, дорог и других транспортных сооружений осуществляется с использованием современных передовых технологий и инженерных инструментов. В этом контексте особое внимание уделяется совершенствованию методов расчета пролетных строений автодорожных мостов под воздействием транспортных нагрузок, а также применению современных и инновационных расчетных технологий для повышения их грузоподъемности.

